

## O'QUVCHILARDA IJTIMOY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Farhadova Zebo**

Urganch Ranch texnologiyalar Universiteti "Pedagogika va aniq fanlar kafedrasii  
Pedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

[zebofarhadova1121@gmail.com](mailto:zebofarhadova1121@gmail.com) Tel: +99 888 859 88 48

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19563732>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari tahlil qilingan.

Ijtimoiy intellektni shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, kommunikativ texnologiyalar, loyihaviy faoliyat va raqamli ta'lim vositalarining o'rni yoritilgan.

O'quvchilarda empatiya, muloqot madaniyati, jamoada ishlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy intellekt, ta'lim texnologiyalari, muloqot, empatiya, interfaol metodlar, ijtimoiy moslashuv.

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические и психологические основы развития социального интеллекта учащихся, а также современные образовательные технологии. Раскрывается роль интерактивных методов, проблемного обучения, коммуникативных технологий, проектной деятельности и цифровых средств обучения в формировании социальной компетентности, эмпатии и навыков межличностного взаимодействия.

**Ключевые слова:** социальный интеллект, образовательные технологии, коммуникация, эмпатия, интерактивные методы, социальная адаптация.

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing students' social intelligence and examines modern educational technologies used in this process. The role of interactive methods, problem-based learning, communicative technologies, project-based activities, and digital tools in fostering empathy, cooperation, and social adaptation skills is highlighted.

**Keywords:** social intelligence, educational technologies, communication, empathy, interactive methods, social adaptation.

### **Kirish**

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalari, muloqot madaniyati va jamoada ishlash qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy intellektni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy muammolarni hal etish qobiliyatini ifodalaydi<sup>1</sup>.

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar va intellekt orqali insoniyat turli yangicha ixtirolar qilmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy-intellektual rivojlanish makoniga ham aylangan. Ijtimoiy intellekt bugungi kunda turli sohalar mukammal rivojlanishiga yo'l ochmoqda. Mazkur mavzuda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni shakllantirish va rivojlantirishdagi roli ilmiy tahlil qilinadi. Bunda raqamli texnologiyalar danfoydalanib mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirib boramiz.

Virtual kommunikatsiya, sun'iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar, raqamli o'yinlar, metakognitiv onlayn mashqlar hamda ijtimoiy simulyatsiyalar orqali o'quvchilarning emotsional sezgirligi, muloqot madaniyati, hamkorlik, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining rivojlanish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar ijtimoiy intellekt rivojlanishining yangi bosqichini shakllantirayotganini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar va intellektlarning rivojlanishi kelajak uchun yangicha ilmiy g'oyalar majmuyiga aylanib bormoqda.

Shu sababli, o'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda raqamli platformalar, sun'iy intellektli dasturlar, masofaviy hamkorlik vositalari va raqamli kommunikatsion muhitning imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

### **Ijtimoiy intellekt tushunchasining mohiyati**

“Ijtimoiy intellekt” tushunchasi dastlab E. Torndayk tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning odamlarni tushunish va ular bilan oqilona munosabat o'rnatish qobiliyati sifatida talqin etilgan<sup>2</sup>.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy intellekt quyidagi komponentlardan iborat deb qaraladi:

- empatiya va hissiy sezgirlik;
- kommunikativ kompetensiya;
- ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish;
- xulq-atvorni moslashtirish;
- jamoada hamkorlik qilish.

O'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning pedagogik asoslari

Ijtimoiy intellektni rivojlantirish quyidagi pedagogik yondashuvlarga asoslanadi:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- faol va interfaol o'qitish;
- ta'lim va tarbiyaning uzviyligi<sup>3</sup>.

Bu yondashuvlar o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Ijtimoiy intellektni rivojlantirish texnologiyalari**

#### **3.1. Interfaol ta'lim texnologiyalari**

“Aqliy hujum”, “Debat”, “Rol o'ynash”, “Kichik guruhlarda ishlash” metodlari o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rgatadi<sup>4</sup>.

#### **3.2. Muammoli ta'lim texnologiyasi**

Muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mantiqiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

#### **3.3. Kommunikativ texnologiyalar**

Dialog, munozara, bahs-munozara asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar empatiya va ijtimoiy sezgirlikni rivojlantiradi<sup>5</sup>.

#### **3.4. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi**

Loyihalar orqali o'quvchilar jamoada ishlash, mas'uliyatni bo'lishish va ijtimoiy muammolarga yechim topish ko'nikmalarini egallaydi.

3.5. Raqamli va media ta'lim texnologiyalari Onlayn platformalar, virtual muhokamalar, media tahlil mashg'ulotlari o'quvchilarning axborot madaniyati va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi<sup>6</sup>.

#### 4. Ijtimoiy intellektni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari

- ijtimoiy roli o'yinlar;

Bu orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar shakillanadi.

- trening va seminarlar;

O'quvchilarni birdamlikka hamda jamoa bo'lib ishlashga undaydi.

- sinfdan tashqari ijtimoiy loyihalar;

O'quv darsdan tashqari materiallar orqali yanada ko'proq malumotlarga ega bo'ladi va real hayotta o'rganib ko'nikma shakillanadi.

- jamoaviy topshiriqlar;

Bolalarni guruh holda ishlash faoliyatini oshiradi shu bilan birga do'stona bo'lishga undaydi.

- refleksiya va o'z-o'zini baholash.

Bu faoliyat turi shaxsni rivojlantirishga va o'ziga bo'lgan ishonchining oshishiga yordam beradi.

#### **Xulosa**

O'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish texnologiyalari ularning shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim ahamiyatga ega. Interfaol, muammoli, kommunikativ va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarda empatiya, ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bu esa ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy intellektni rivojlantirishda eng samarali hamda eng zamonaviy vositalardan biriga aylanmoqda. Ular virtual hamkorlikni kuchaytiradi, empatiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, real vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi, shaxsning ijtimoiy refleksiyasini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarva ijtimoiy intellektning rivojlanishining yangi paradigmasini yaratdi. Bu bolalarga ijtimoiy xulq, emotsional barqarorlik, raqamli empatiya kabi jahon bozorida talabi yuqori bo'lgan kompetensiyalarni egallashga katta yordam beradi. Kelajakda raqamli ijtimoiy-intellektual platformalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <sup>1</sup> G'oziev E. Psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2010. — 112–118-betlar.
2. <sup>2</sup> Thorndike E. Intelligence and Its Uses. — Harper's Magazine, 1920. — pp. 227–235.
3. <sup>3</sup> Ziyodova Sh.Q. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2017. — 64–79-betlar.
4. <sup>4</sup> Shodiyev E. Interfaol ta'lim metodlari. — Toshkent: TDPU, 2019. — 45–68-betlar.
5. <sup>5</sup> Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. — Moskva: Aspekt Press, 2012. — 91–110-betlar.
6. <sup>6</sup> Goleman D. Social Intelligence. — New York: Bantam Books, 2006. — pp. 85–120.